



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi faoliyatida boshqaruvni
tizimlashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq buyuraman:

1. Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi (keyingi o'rnlarda – vazirlik) huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan qabul qilinayotgan hududiy bo'linmalarga majburiy bo'lgan me'yoriy buyruqlar (kadrlar faoliyatiga oid buyruqlar bundan mustasno) majburiy tartibda vazirlik bilan kelishilsin.

2. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda Maktabgacha ta'lim agentligi shu kunga qadar o'zları qabul qilgan barcha hududiy bo'linmalarga majburiy bo'lgan me'yoriy buyruqlarni bekor qilsin va mazkur buyruq bilan belgilangan tartibda vazirlik bilan kelishgan holda qayta qabul qilsin.

3. Viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'lifi bo'limlari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan vazirlik bilan kelishgan holda qabul qilingan buyruqlar ijrosini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlasin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi hamda Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan qabul qilingan buyruqlar vazirlik devonxonasi tomonidan muxr bosilgan (buyruqning pastki o'ng qismiga) taqdirda vazirlik bilan kelishilgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (D.Isxakova) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni Agentliklar, vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo'limlari, hududiy maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalariga yetkazsin.

6. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish Vazir kotibiyati boshlig'i J.A. Shamshiyev zimmasiga yuklatilsin.



Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil 12-iyul,
201-son

X. Umarova